




**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QASHQADARYO VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL
YANVAR-MART**

2023- yilning yanvar-mart oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **1669,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





Yirik qurilish tashkilotlari

Norasmiy sektor


Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 107,3 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 64,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 80,9 % ni tashkil etgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,5 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 113,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 22,9 foiz ulushni tashkil etib, 82,7 foizni tashkil etgan.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.04.2022- y.	01.04.2023- y.	
Qashqadaryo viloyati	3465	2923	84,4
shaharlar:			
Qarshi sh.	896	813	90,7
Shahrisabz sh.	144	133	92,4
tumanlar:			
G'uzor	147	104	70,7
Dehqonobod	153	112	73,2
Qamashi	172	134	77,9
Qarshi	399	308	77,2
Koson	312	262	84,0
Kitob	131	124	94,7
Mirishkor	90	98	108,9
Muborak	185	137	74,1
Nishon	125	101	80,8
Kasbi	161	140	87,0
Ko'kdala	0	33	0
Chiroqchi	216	148	68,5
Shahrisabz	118	104	88,1
Yakkabog'	216	172	79,6



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da


Qarshi sh. (27,6)



Qarshi (10,5)




Koson (9,0)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	1669,3	353,6	1015,4	300,3
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	505,9	164,3	314,1	27,6
Shahrisabz sh.	99,6	33,0	51,4	15,1
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	176,7	40,2	103,8	32,7
Dehqonobod	36,7	0,0	18,4	18,3
Qamashi	39,5	0,0	25,9	13,6
Qarshi	121,3	0,1	102,1	19,2
Koson	99,8	3,6	61,4	34,8
Kitob	108,2	4,2	64,0	40,0
Mirishkor	18,1	0,0	16,0	2,1
Muborak	102,1	57,6	34,4	10,1
Nishon	60,5	2,4	51,1	7,0
Kasbi	45,0	0,0	21,1	23,9
Ko'kdala	3,3	0,0	2,7	0,6
Chiroqchi	148,3	43,5	76,2	28,6
Shahrisabz	34,6	0,0	32,2	2,3
Yakkabog'	69,6	4,6	40,6	24,3


* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



2023- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 353,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 100,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,1 % punktga ko'payib, 21,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart uchun

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.




Ulushi % da



2022- yil
yanvar-mart



2023- yil
yanvar-mart



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 46,5 % i yoki 2022- yilga nisbatan 85,1 %ni tashkil qildi), Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 16,3 % i yoki 2022- yilga nisbatan 8,9 marta ko'paydi) va Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 12,3 % i yoki 2022- yilga nisbatan 77,9 % ga ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,8 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 106,0 % ni tashkil etgan holda 1015,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da

60,8

2023- yil
yanvar-mart

57,4

2022- yil
yanvar-mart



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (314,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 62,1 %), Qarshi tumani (102,1 mlrd. so'm yoki 84,1 %), G'uzor tumani (103,8 mlrd. so'm yoki 58,7 %) ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **18,0 %** ni tashkil etdi yoki **300,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. **2022- yilga nisbatan 84,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-mart

310,2
mlrd. so'm


2023- yil
yanvar-mart

300,3
mlrd. so'm

21,5 %

18,0 %

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **88,1 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1581,3 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,3 %** va **94,7 %** ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **59,6 %** i yoki **994,1** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 177,4 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 541,9 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,5 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 274,8 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-martda

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Qashqadaryo viloyati	1669,3	83,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	505,9	88,4	32,4
Shahrisabz sh.	99,6	82,2	3,7
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	176,7	67,3	8,5
Dehqonobod	36,7	77,2	3,7
Qamashi	39,5	75,1	2,5
Qarshi	121,3	79,0	8,8
Koson	99,8	82,4	6,8
Kitob	108,2	85,3	6,5
Mirishkor	18,1	94,2	2,9
Muborak	102,1	80,7	4,1
Nishon	60,5	95,0	2,5
Kasbi	45,0	90,6	3,5
Ko'kdala	3,3	94,5	1,6
Chiroqchi	148,3	72,3	5,1
Shahrisabz	34,6	81,1	2,7
Yakkabog'	69,6	93,9	4,6

*hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda



Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish

66,5



Fuqarolik obyektlarini qurish

20,1



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

13,4

2023- yil
yanvar-mart



Bino va inshootlarni qurish

76,9



Fuqarolik obyektlarini qurish

12,8



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

10,3

2022- yil
yanvar-mart

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,6 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'payib, 68,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamayib, 27,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 26,4 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 73,5 % (4,4 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi (0,1 % punktga kamayish).



ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 36,6 % punktga ko'paydi va 68,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 31,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 36,6 % punktga kamaydi.



Yirik qurilish tashkilotlari ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

2022- yil yanvar-mart

2023- yil yanvar-mart



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2022- yil yanvar-martda

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, mlng. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	478,2	97,9
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	1 745,1	100,2
Shahrisabz sh.	686,5	147,2
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	811,5	84,4
Dehqonobod	234,3	77,9
Qamashi	137,5	101,0
Qarshi	455,6	112,1
Koson	326,7	79,7
Kitob	391,0	106,3
Mirishkor	142,7	57,4
Muborak	1 109,6	154,4
Nishon	370,6	89,5
Kasbi	215,6	123,7
Ko'kdala	17,9	77,7
Chiroqchi	567,2	95,7
Shahrisabz	149,4	73,0
Yakkabog'	250,9	123,8



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-martda

Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qarshi shahri – 1745,1 ming so'm yoki, 2022- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 100,2 %, undan keyin mos ravishda Muborak – 1109,6 ming so'm (yoki 154,4 %), G'uzor – 811,5 ming so'm (yoki 84,4 %), Shahrisabz sh. – 686,5 ming so'm (yoki 147,2 %) va Chiroqchi – 567,2 ming so'm (yoki 95,7 %) tumanlari egalladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (75) 221-32-47